

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI BIR MARTALIK ILMY KENGASH
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

JO'RAYEV AZIZ TUROB O'G'LI

**ORGANIK KIMYO FANINI O'QITISHDA TALABALARNING O'QUV
BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Jo'rayev Aziz Turob o'g'li

Organik kimyo fanini o'qitishda talabalarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirish metodikasi..... 3

Жўраев Азиз Туроб угли

Методика развития учебно-образовательной деятельности студентов при обучении органической химии 21

Jurayev Aziz Turob ugli

Methodology for developing learning activity of students in teaching organic chemistry 39

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMYIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI BIR MARTALIK ILMYIY KENGASH
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

JO'RAYEV AZIZ TUROB O'G'LI

**ORGANIK KIMYO FANINI O'QITISHDA TALABALARNING O'QUV
BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Ped4113 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasiga (www.namdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Boltayeva Muxayyo Lutfullayevna
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ibragimov Alijon Aminovich
kimyo fanlari doktori, professor

Do'monov Baxromjon Muxtoraliyevich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Dissertatsiya Andijon davlat univarsiteti huzuridagi DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 raqamli ilmiy kengash asosidagi Bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil «25» «08» soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Universitet ko'chasi, 129-uy. Tel.: (+99877) 223-84-33; faks: (99874) 223-84-33.

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (58 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, Universitet ko'chasi, 129-uy. Tel.: (+99877) 223-84-33; faks: (99874) 223-84-33, e-mail: mirjalolmominjonov1@gmail.com.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «08» 11 kuni tarqatildi.
(2025-yil «08» 11 dagi 58 raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.X.Abdulloyev

Ilmiy darajalar beruvchi Bir
martalik ilmiy kengash rais
o'rinbosari, k.f.d., professor

M.M.Mo'minjonov

Ilmiy darajalar beruvchi Bir
martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi,
k.f.d., dotsent

M.M.Nojimatov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzuning dolzarbligi va zarurati. Dunyoda kimyo fani ilmfan, texnologiya hamda tabiiy fanlar tizimida global rivojlanishga mos ravishda ta'lim mazmunini innovatsion texnologiyalar yordamida ommalashtirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada, rivojlangan mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalarida xalqaro standartlarga javob beradigan kadrlar tayyorlash maqsadida sifatli ta'lim berish, fundamental kimyo fanlarini o'qitishda ilg'or texnologiya, didaktik vositalardan foydalanish, o'quv-ilmiy laboratoriyalarini zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash, virtual laboratoriyalar asosida kimyoviy tajribalar o'tkazish texnologiyasini yaratish va uni amaliyotga joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda kimyo ta'limi sohasida o'qitish mexanizmlarini yaratish, o'qitishni pedagogik dasturiy vositalar hamda interfaol metodlar asosida tashkil etish, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion metodik modellarini takomillashtirish yo'nalishida qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ta'lim mazmunini xorijiy tajribalar asosida yangilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu sababdan, kimyo fanini innovatsion va axborot texnologiya vositalari asosida o'qitish jarayonini takomillashtirish, zamonaviy metodlar asosida yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish, nazariya va amaliyot integratsiyasini ta'minlash orqali talabalarning o'quv bilish faoliyatini samarali tashkil etishning o'quv-uslubiy ta'minotini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilib, "individual ta'lim traektoriyalariga asoslangan, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ "Oliy ta'lim qamrov darajasi va ta'lim sifatini oshirish" bo'yicha amalga oshirilishi muhim bo'lgan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, hozirgi zamon talablariga mos o'quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta'lim dasturlarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 12-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta‘lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: II. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy hamda ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kimyo fanini o‘qitish metodikasining nazariy-metodologik, o‘qitish usullari, zamonaviy ta‘lim vositalaridan ta‘lim jarayoniga qo‘llash ustida ko‘plab olimlar ish olib borganlar.

Xorijlik olimlar G.Spenser, B.Blum, A.Lavuaze, J.Dalton, R.Mohan, M.Vanlar o‘zlarining yaratgan nazariy konsepsiyalari va qonunlari asosida kimyo o‘qitish metodikasini takomillashtirish ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. MDH davlatlarida ushbu yo‘nalish bo‘yicha I.M.Gaponenko, T.V. Borovskix, M.B.Dya-kova, O.S.Zaytsev, S.V.Inozemseva, N.YE.Kuznetsova, L.G.Taskayeva, G.M.Shernobelskaya, D.P.Yerigin, B.D.Berezin, E.G.Zlotnikov, V.S.Polosin, M.A.Shatalov, L.A.Jarkix, Ye.K.Dolganlar ilmiy izlanishlar olib borgan bo‘lsalar, O‘zbekistonlik olimlar k.f.d., professor I.R.Asqarov, t.f.d., professor N.S.Mamasoliyev, N.H.To‘xtaboyev, X.T. Omonov, M.Qo‘chqarov, Ye.L.Dratva, A.Azimov, M.I.Umarov, Sh.Sh.Begmatov, T.Yu.Nasriddinov, M.Umarov, A.Mamajonov, J.Fayozov, T.Gulboyev, R.Shoyardonov, Sh.Begmatov, E.Eshshanov, F.Alimova, S.Nizomova, B. Ibragimov, N.Kamolovalar diqqatga sazovor natijalarga erishganlar.

Hozirgi kunda organik kimyo fanini o‘qitishda talabalarning o‘quv bilish faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari, talabalarning o‘quv bilish faoliyatini rivojlantirish dolzarb muammo ekanligi, organik kimyo fanini o‘qitishda talabalarning o‘quv bilish faoliyatini rivojlantirish metodlari ishlab chiqilmagan.

Mazkur dissertatsiya ishi o‘quv bilish jarayoni bilim, ko‘nikma va malakalarni talabalarga shunchaki uzatishdan iborat emasligi, ushbu jarayon ikki yoqlama xarakterga ega bo‘lib, talabalar va professor-o‘qituvchilar, o‘qitish va o‘rganishning o‘zaro aloqadorligi kabi muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasining ilmiy–tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi: Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 561624-ERR. “O‘zbekiston oliy ta‘limi jarayonini modernizatsiyalash va xalqarolashuvini rivojlantirish” (2018-2020 yy.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Organik kimyo ta‘limida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va eksperimental o‘qitish modellarini integratsiyalash asosida talabalarning o‘quv-bilish faolligini rivojlantirishning samarali metodik tizimni ishlab chiqish va ilmiy asoslash.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

organik kimyo fanini o‘qitishda talabalar o‘quv-bilish faoliyatining nazariy, psixologik va pedagogik asoslarini ilmiy tahlil qilish;

organik kimyo fanini o'qitishning mavjud holati va muammolarini o'rganish, shu asosda talabalarning o'quv motivatsiyasi va kognitiv faolligini rivojlantiruvchi samarali usul, vosita va texnologiyalarni aniqlash;

talabalarning o'quv-bilish faolligini rag'batlantirishga xizmat qiluvchi laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim amaliyotlari va innovatsion texnologiyalarning metodik tizimini loyihalash;

organik kimyo fanidan eksperimental o'qitish modellarini ishlab chiqish, amalga oshirish va ularning talabalar o'quv-bilish faolligini rivojlantirish samaradorligini tajriba-sinov yo'li bilan baholash;

organik kimyo fanidan talabalarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini tajriba-sinovdan o'tkazish hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida organik kimyo fanini o'qitishda talabalarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga 371 nafar talabalar olingan.

Tadqiqotning predmeti organik kimyo fanini o'qitishda talabalarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalardan iborat.

Tadqiqotning usullari Dissertatsiya ishini bajarishda mavzuga oid falsafiy, pedagogik, psixologik va metodik manbalar, oliy ta'limga tegishli me'yoriy hujjatlar, pedagogik kuzatish, qiyosiy tahlil, anketa so'rovnomalari, laboratoriya mashg'ulotlari, amaliy mashg'ulotlar, suhbat va test sinovlari natijalarini matematik-statistik tahlil qilish kabi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

organik kimyo fanini o'qitishda talabalarning o'quv-bilish faolligini shakllantirishga ta'sir etuvchi pedagogik-psixologik usullar ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi ta'lim jarayoni mazmuni, shakli va texnologiyalari bilan o'zaro integratsiyasi nazariy-amaliy o'quv modellarini ko'rgazmali modellarga aylantiruvchi ta'limiy dasturiy texnologiyalar bilan har bir mavzuga oid modullarning amaliy qismini birlashtirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarda o'quv motivatsiyasi va kognitiv faollikning pasayishiga sabab bo'layotgan omillarni bartaraf etishda kimyo laboratoriya-amaliy mashg'ulotlarda o'quv-bilish faoliyatini kuchaytiruvchi virtual o'quv komponentlarni mavzuga oid kimyoviy tajribani amalga oshirish jarayonining amaliy qismida ko'rgazmali qo'llash asosida rivojlantirish va raqamli ta'lim texnologiyalarini nazariy-amaliy o'quv modellari bilan modifikatsiyalangan internal aloqasini dars jarayonlarida ta'minlash asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlarini kuchaytirish mumkinligi ilmiy asoslangan;

laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim amaliyotlari va innovatsion texnologiyalarni har bir modulning individual qismiga iyyerarxik tarzda uyg'unlashtirish asosida, talabalarning murakkab mavzularni samarali o'zlashtirishini ta'minlovchi hamda o'quv-bilish faoliyatining sifatini oshiruvchi didaktik ta'minotning mazmuniy tarkibi va o'qitish mexanizmi ko'rgazmali virtual innovatsion o'quv komponentlarini murakkab mavzularni o'qitish jarayonining amaliy qismida qo'llash asosida takomillashtirildi;

o'quv-bilish faolligini rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks o'quv modullari talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'nikmalarini kimyo o'qitish metodlarining interfaol shakllari bilan ichki integratsiyasi, mazmunan yaqin o'quv komponentlariga kreaktiv kimyoviy jarayonlarni virtual tarzda kompleks qo'llash asosida takomillashtirildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan organik kimyo fani mazmuniga oid muammoli vaziyatdagi topshiriqlar to'plami ishlab chiqilgan hamda "Organik kimyodan lug'at" nomli lug'at nashr qilinib, amaliyotga joriy qilingan;

organik kimyo fanidan bilimlarni mustahkamlash shuningdek, har bitta organik sintezlarni amalga oshirishdan oldin har bir reagentning kvant-kimyoviy hisoblashlar natijasini bilish orqali olib borilayotgan sintezning natijasini (reaksiya unumi, sifat va miqdor tarkibini, hosil bo'ladigan oraliq mahsulotlarni) oldindan asosli va aniq bashorat qilish imkonini bera oladigan mazkur fanning geterosiklik birikmalar bobi misolida "Geterosiklik birikmalar xossalarini o'rganishda kvant-kimyoviy hisoblashlar usullaridan foydalanib, organik kimyo fanini o'qitish jarayonida talabalarning o'quv bilish faoliyatlarini rivojlantirish asoslari" nomli elektron dastur ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Organik kimyo fanini o'qitishda talabalarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirish metodikasiga oid ma'lumotlar respublika va xorij olimlari tajribalariga asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari unumliligi darajasi matematik-statistik usullar yordamida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Organik kimyo fanini o'qitishda talabalarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirish metodikasi tuzilmasi va komponentlarining aniqlashtirilganligi, talabalarda o'quv bilish faoliyatini rivojlantirishga qo'yiladigan metodik talablarning ishlab chiqilganligi, oliy ta'lim o'quv jarayonlarida virtual (online) dasturlar yordamida o'qitish orqali o'quv bilish faoliyatini rivojlantirish metodikasining mazmunining asoslab berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati organik kimyoni o'zlashtirishga doir muammoli vaziyatlar va uslubiy xarakterdagi topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, organik kimyo faniga mo'ljallangan laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ishlar uchun didaktik materiallar to'plamini tuzish, elektron ta'lim resurslari, zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish, talabalarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirish, ularda kreativ fikrlashni shakllantirish shuningdek, kasbiy kompetentligini rivojlantirishga etakchi vosita vazifasini bajaruvchi dasturiy ma'lumotlardan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Organik kimyo fanini o'qitish jarayonida talabalarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish doirasida olingan ilmiy natijalar asosida:

organik kimyo fanini o'qitishda talabalarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari protsessual komponentlari tarkibini o'quv bilish faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashuvshi motivatsion bilish sohasiga o'zaro integratsiyalash asosida aniqlashtirishga doir taklif va tavsiyalari "Organik kimyo" nomli elektron darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi № 233-0150 guvohnomasi). Natijada, organik kimyo fanini o'qitish jarayonida talabalarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirish metodikasi mazmunini takomillashtirish imkonini bergan.

organik kimyo fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishning funksional modeli o'quv bilish faoliyatini rivojlanganlik darajasi va nazariy hamda amaliy mezonlarni muvofiqlashtiruvshi innovatsion mashg'ulot strategiyasini tizimlashtirish borasida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalari "Kimyo o'qitish metodikasi" nomli darslik mazmuniga sindirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 23-noyabrdagi nashr guvohnomasi №500-048). Natijada, talabalarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

organik kimyo fanini o'qitishda o'quv bilish faoliyatini rivojlantirish metodikasi ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion axborot dasturlar (Phyton, QR generator, ChemDraw Ultra 12.0) ini o'zaro modernizatsiyalash natijasida takomillashtirish shuningdek, organik kimyo fanini o'qitishda talabalarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirishni maqsad qilib, laboratoriya ishlarini bajarishning elektron-virtual dasturi harakatlantiruvchi mashqlar asosida ishlab chiqishga doir taklif va tavsiyalardan "Bioorganik kimyo" va "Fizikaviy kimyo" nomli elektron darsliklarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining, 2022-yil 13-may №166-733, 2021-yil 28-avgustdagi nashr guvohnomasi №375-035 nashr guvohnomasi). Natijada, organik kimyo fanini o'qitish jarayonida talabalarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiluvshi elektron tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish, jumladan, shulardan 2 ta darslik, 2 ta monografiya, 1 ta lug'at, 1 ta o'quv qo'llanma, 2 ta elektron darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 124 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "Organik kimyo fanini o'qitishda talabalarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari" deb nomlangan birinchi bobida organik kimyo fanini o'qitishda talabalarning o'quv bilish faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari, talabalarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirish dolzarb muammo ekanligi, organik kimyo fanini o'qitishda talabalarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari yoritilgan.


Ma'lumki, mamlakatimizda milliy ta'lim tizimining me'yoriy-huquqiy asoslarini ishlab chiqishda asosiy e'tibor zamonaviy uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga hamda yangicha fikrlaydigan, el-yurt kelajagi uchun qayg'uradigan, hayotda o'zini munosib o'rnini topa oladigan, barpo etilayotgan Yangi O'zbekistonning manfaatlari va taraqqiyoti uchun xizmat qilishga qodir bo'lgan, ma'naviy yetuk, intellektual salohiyatli barkamol avlodni tarbiyalashga qaratildi.

Xususan, 2020-2025 yillarda kimyo va biologiya yo'nalishida uzluksiz ta'lim sifatini hamda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiya ishlari natijadorligini oshirish bo'yicha maqsadli dasturda kimyo va biologiya fanlari bo'yicha ta'lim sifatini tubdan oshirish, oliy ta'lim muassasalarida kimyo fanlarini o'qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, ta'lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o'quv jihozlari bilan ta'minlash, kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanishda ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o'rtasida o'zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar, amalga oshirish mexanizmi ishlab chiqilgan. Bunday tizimli chora-tadbirlarda oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarning o'quv bilish faoliyatlarini tashkil etishga zamonaviy talablar nuqtayi nazaridan yondashishning muhimligi bizning tadqiqot ishimizning dolzarbligini ko'rsatadi.

O'quv bilish jarayoni bilim, ko'nikma va malakalarni talabalarga shunchaki uzatishdan iborat emas, ushbu jarayon ikki yoqlama xarakterga ega bo'lib, talabalar va professor-o'qituvchilar, o'qitish va o'rganishning o'zaro aloqadorligida namoyon bo'ladi. Talabalarning o'qish, o'rganish va professor o'qituvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan munosabatlari ularning faolligi orqali aniqlanadi (1-rasmga qarang).

Dissertatsiyaning "**Oliy ta'lim muassasalarida organik kimyo fanini o'qitishning metodik mazmuni**" nomli ikkinchi bobida organik kimyo fanini o'qitish jarayonida talabalarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirish mexanizmi, laboratoriya mashg'uloti va mustaqil ta'lim vositsida talabalarda o'quv bilish

faoliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari hamda talabalarda o‘quv bilish faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy metodik tuzilmasi va innovatsion texnologiyasi haqida so‘z yuritilgan.



1-rasm. O‘quv bilish jarayonida Organik kimyo fanining “Klaster” usulida mohiyatan asoslash sxemasi

O'quv bilish faoliyatining ikki jihatini farqlash lozim. Bular quyidagilar:

1. O'quv faoliyati - darslikdan o'qib o'rganish, professor-o'qituvchilarning tushuntirishini tinglash, taqlid qilish, o'rganilgan bilimlarni hayotga tatbiq qilib faoliyatni qayta takrorlash va shu yo'l bilan ko'nikma-malakalarni takomillashtirish kabi tuchunchalarni o'zida mujassam etadi. O'quv faoliyati tarkibi jihatidan motiv, maqsad, ko'nikma-malakalarni ilmiy faraz bilan o'zlashtirishga ko'rsatmalar berish, tashkil qilinadigan va boshqarib turiladigan faoliyat turidir.

2. Bilish faoliyati – yetakchi ta'lim texnologiyalari asosida bugungi kunda yaratilayotgan fandagi yangiliklarni o'rganishda qo'llaniladigan bilimlarni egallashga mo'ljallangan, o'rganilgan bilimlarni yangi o'quv sharoitiga ko'chirishga yo'naltirilgan, o'rganilayotgan obyektning talaba uchun hali ma'lum bo'lmagan qirralarini ochib berish bilan xarakterlanadigan faoliyatdir. Bilish faoliyatida o'rganilgan obyektни bilish, uning o'ziga xos yo'nalishlarini tahlil qilish davom etadi. O'quv faoliyati bilan bilish faoliyatining birgalikda amalga oshirish bilim, malaka va ko'nikmalar, bazaviy bilimlar majmuining targ'ib qilinishi va barqarorlashishiga sabab bo'ladi. Bilish faoliyati ta'lim mazmuni doirasida hosil bo'lgan ijodiy faoliyat ko'rsatishga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarda ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishning yetakchi omili hisoblanadi.

O'quv bilish faoliyatining rivojlanishini ijobiy munosabatni ta'minlash maqsadida o'rganilishi dolzarb bo'lgan bilimlar va barcha faoliyat turlari maqsadli taqsimlanishi kerak. Masalan, organik kimyoga oid ikki guruh terminlar berilgan. Ularni o'zaro taqqoslab, xulosa chiqarish vazifasi topshirilgan.

1-jadval va 2-rasmdagi diagrammani talabani bilim, fikr doirasidan kelib chiqqan holda istagancha davom ettirishimiz mumkin. Masalan kimyoviy va fizik xossalari, olinish usullari, muhim vakillari va boshqalar. Ushbu metodning afzalligi talabada o'tgan mavzularni takrorlash, organik kimyoning sinflararo bog'liqlikni aniqlash, taqqoslash orqali bilimlar mantiqiy bazasini kengaytirish imkoni ortadi.

Topshiriq. Quyidagi 1-jadvalni ma'ruza mashg'ulotlari davomida egallagan bilimlarinigiz asosida tahlil qiling.


1- jadval.

O'quv bilish faoliyatini rivojlantirishda qiyosiy tahlil mashqlari


| <i>Birinchi guruh alkinlar</i> | <i>Ikkinchi guruh alkadiyenlar</i> |
|---|---|
| C_nH_{2n-2} | C_nH_{2n-2} |
| C_2H_2 | - |
| C_3H_4 | C_3H_4 |
| Butin-1 | Butadiyen-1.2 |
| Butin-2 | Butadiyen-1.3 |
| \equiv | $=$ |
| s, sp, sp^3 | s, sp, sp^2 , sp^3 |

Topshiriqni bajarish davomida talaba "Venn diagrammasi" metodidan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi (2-rasmga qarang).


Didakt olimlarning izlanishlarida o'quv topshiriqlarining ko'p maqsadli pedagogik hodisa ekanligi isbotlangan. Mutaxassislar orasida birinchilardan bo'lib bu hodisaga O. Roziqov alohida e'tibor qilgan edi. Uning yozishisha, "O'quv topshirig'ida to'g'ri va qo'shimcha maqsad, xususiy va umumiy maqsad, uzoq va yaqin maqsad ajratiladi" (3-rasmga qarang).



2-rasm. Alkinlar va alkadiyenlar o'ratasida umumiylik va farqlar ifodalangan "Venn diagrammasi".



3-rasm. Talabalarda organik kimyo fanini o'qitishda o'quv bilish faoliyatini rivojlantirish mexanizmi.



4-rasm. Organik kimyo ta'limida talabalarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modeli

Takidlab o‘tilgan metod va vositalardan organik kimyo ta’limida talabalarning o‘quv bilish faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modelida yaqqol ko‘rsatib o‘tish mumkin (4-rasmga qarang).

Bunda maqsad sifatida ijtimoiy ehtiyojga organik kimyo fani mashg‘ulotlarida malaka talablari va kompetentli yondashuv asosida talabalarning ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish maqsadiga erishish bosh omil sifatida qaralgan.

“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish” deb nomlangan uchinchi bobda tadqiqot ishi doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining mazmun-mohiyati va samaradorlik darajasi tahlil qilingan.

Organik kimyo fani bo‘yicha tajriba-sinov ishlari yaxlitlik, obyektivlik, samaradorlik, ilmiylik, talaba shaxsiga insonparvar yondashuv, o‘quv-ilmiy axborotlarning ehtiyoji va yetarli bo‘lishi, ilmiy-metodik maslahatning har tomonlamaligi, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tizimli tashkil etish va baholash metodik mezonlar naznida amalga oshirildi (2-jadvalga qarang).

Tajriba-sinov ishlaridan olingan miqdoriy ko‘rsatkichlarning ishonchliligi va ilmiy tadqiqot ishlarida ilgari surilgan farazlarning to‘g‘riligini isbotlash uchun tahlilning matematik statistik usullaridan foydalanildi. Tadqiqot ishida taklif etilgan metodika asosida o‘tkazilgan darslar an’anaviy darslarga nisbatan samarali bo‘lganida tajriba-sinov sinflari o‘quvchilarining o‘zlashtirishi nazorat sinflari o‘quvchilariga nisbatan yuqori bo‘lishi taxmin qilinadi.

2-jadval.

Organik kimyo fanini o‘qitishda talabalarning o‘quv bilish faoliyatini rivojlanganlik darajasini baholash mezonlari

| | | |
|-----------------|----------------------|---|
| Mezonlar | Yuqori daraja | Organik kimyo fan dasturidagi o‘quv materiallarini puxta o‘zlashtirgan, fan yuzasidan yetarli darajada bilimlarga ega, organik kimyo fani doirasida bilim, malakalarini rivojlantirishga intiladi, olgan bilim va ko‘nikmalarini amalda to‘la namoyon qiladi. |
| | O‘rta daraja | Organik kimyo fan dasturidagi o‘quv materiallarini o‘zlashtirgan, fan yuzasidan ma’lum darajada bilimlarga ega, olgan bilim va ko‘nikmalarni amalda ko‘nikmalarini ma’lum darajada namoyon qiladi. |
| | Past daraja | Organik kimyo fan dasturidagi o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda sustkashlik qiladi, organik kimyo fani bo‘yicha ko‘nikmalarga egaligini amalda deyarli namoyon qilishga qiynaladi. |

Pedagogik tajriba-sinov ishlari 2020-2023 yillarda Namangan davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Andijon davlat universitetda olingan. (3-jadvalga qarang).

O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari takomillashtirilgan metodika, turli metod, shakl va vositalarni qamrab olgan. Tadqiqot yuzasidan tajriba-sinov ishlari 2020-2023-yillarda 3 bosqichda tashkil qilindi va o'tkazildi

3-jadval.

Organik kimyo fanini o'qitishda talabalarning o'quv bilish faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan respondentlarning tajriba va nazorat guruhlariga taqsimlanishi

| Tajriba-sinov obyektlari | Umumiy respondentlar soni | Tajriba guruhi | Nazorat guruhi |
|------------------------------|---------------------------|----------------|----------------|
| Andijon davlat universiteti | 122 | 61 | 61 |
| Namangan davlat universiteti | 126 | 64 | 62 |
| Buxoro davlat universiteti | 123 | 62 | 61 |
| Jami | 371 | 187 | 184 |

Yuqorida ta'kidlanganidek, organik kimyo fanini o'qitishda talabalarning o'quv bilish faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tajriba va nazorat guruhi respondentlarining statistik ko'rsatkichlarini hisoblash va ularning statistik tahlilini o'tkazishda matematik statistika usullaridan foydalanildi.

Tajriba so'ngida olingan yakuniy miqdor ko'rsatkichlari 4-, 5-, 6-jadvallarda keltirib o'tilgan.

4-jadval.

Organik kimyo fanini o'qitishda talabalarning o'quv bilish faoliyatini takomillashganlik darajasi

| Mezonlar | Tajriba guruhi (187 nafar respondent) | | | | | | Nazorat guruhi (184 nafar respondent) | | | | | |
|---|---------------------------------------|------|----------|------|------|------|---------------------------------------|------|----------|------|------|------|
| | yuqori | | o'rtacha | | past | | yuqori | | o'rtacha | | past | |
| | T.a. | T.s. | T.a. | T.s. | T.a. | T.s. | T.a. | T.s. | T.a. | T.s. | T.a. | T.s. |
| Kimyo sohasidagi bilimlarga egalik salohiyati | 53 | 89 | 67 | 64 | 67 | 34 | 48 | 52 | 66 | 68 | 70 | 64 |
| Resurslar bilan ishlashda o'quv bilish faoliyatini rivojlanganligi | 49 | 95 | 69 | 66 | 69 | 26 | 46 | 53 | 68 | 69 | 70 | 62 |
| Kimyo uskunalari bilan ishlashda o'quv bilish faoliyatini rivojlanganligi | 50 | 93 | 71 | 67 | 66 | 27 | 50 | 51 | 65 | 72 | 69 | 61 |

| | | | | | | | | | | | | |
|--|----|-----------|----|-----------|----|-----------|----|-----------|----|-----------|----|-----------|
| O‘z-o‘zini rivojlantirish o‘quv bilish faoliyatini rivojlanganligi | 52 | 91 | 69 | 63 | 66 | 33 | 52 | 52 | 69 | 71 | 63 | 61 |
| Umumiy o‘rtacha | 51 | 92 | 69 | 65 | 67 | 30 | 49 | 52 | 67 | 70 | 68 | 62 |

Izoh: T.a. – tajriba avvalida, T.s. – tajriba so‘nggida.

Yuqoridagi jadvallardan ko‘rinib turibdiki, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi talabalarida nazorat guruhidagi talabalarga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalar samarali shakllanishida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan. Bu jadvallar asosida organik kimyo fanini o‘qitishda talabalarning o‘quv bilish faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqich natijalarini qiyosiy tahlili keltirilgan (6-jadvalga qarang).

5-jadval.

Organik kimyo fanini o‘qitishda talabalarning o‘quv bilish faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlaridagi ma’lumotlarning solishtirma jadvali

| Sinov guruhi | Tajriba o‘tkazilgan OTM nomi | yuqori | o‘rtacha | past | Jami |
|----------------|------------------------------|-----------|-----------|-----------|------------|
| | AndDU | 31 | 22 | 8 | 61 |
| | NamDU | 30 | 23 | 11 | 64 |
| | BuxDU | 28 | 20 | 14 | 62 |
| | Jami | 89 | 65 | 33 | 187 |
| Nazorat guruhi | Tajriba o‘tkazilgan OTM nomi | yuqori | o‘rtacha | past | Jami |
| | AndDU | 18 | 23 | 20 | 61 |
| | NamDU | 17 | 21 | 24 | 62 |
| | BuxDU | 15 | 26 | 20 | 61 |
| | Jami | 50 | 70 | 64 | 184 |


6-jadval.

Organik kimyo fanini o‘qitishda talabalarning o‘quv bilish faoliyatini takomillashtirish darajalarining qiyosiy tahlili (son va foizlarda)

| Guruhlar | Talabalar soni | O‘zlashtirish natijalari (% da) | | |
|----------------|----------------|---------------------------------|----------|------|
| | | yuqori | o‘rtacha | past |
| Tajriba guruhi | 187 | 89 | 65 | 33 |
| | | 49 | 35 | 16 |
| Nazorat guruhi | 184 | 50 | 70 | 64 |
| | | 28 | 38 | 34 |

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko‘ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi talabalarda nazorat guruhidagi talabalarga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalar samarali shakllanganligi aniqlandi. Bu holatni obyektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlashtirgan xulosagina tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to‘g‘ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi. Ta’kidlovchi tajriba-sinov davrida ham statistik tahlilni amalga oshirish uchun Styudent va Pirson metodlari tanlandi. Mazkur metod ikki guruhda qayd etilgan ko‘rsatkichlarni aniqlash va obyektiv baholash imkoniga ega. Matematik statistik metodning mohiyatiga ko‘ra dastlabki bosqichda tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan statistik ko‘rsatkichlarni tanlanmalar sifatida belgilanib, baho ko‘rsatkichlari bo‘yicha variatsion qatorlarni hosil qilish lozim bo‘ldi.

Bu diagrammada quyidagi ko‘rinishni oldi (5-rasmga qarang).



5-rasm. Organik kimyo fanini o‘qitishda talabalarning o‘quv bilish faoliyatini takomillashtirish darajalarining diagrammasi

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhidagi yuqori va o‘rta ko‘rsatkichlar nazorat guruhi ko‘rsatkichlaridan yuqori ekan.

Yuqoridagi natijalarga asoslangan holda matematik statistik tahlil qilinib, tajriba yakunidagi holat uchun o‘rta qiymatlar, tanlanma dispersiya, variatsiya ko‘rsatkichlari, Styudentning tanlanma mezoni, Styudent mezoni asosida erkinlik darajasi, Pirsonning muvofiqlik mezoni va ishonchli chetlanishlari topildi (7-jadvalga qarang).

7-jadval.

Organik kimyo fanini o‘qitishda talabalarning o‘quv bilish faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining statistik ko‘rsatkichlari

| \bar{X} | \bar{Y} | S_x^2 | S_y^2 | C_x | C_y | $T_{x,y}$ | K | $X_{n,m}^2$ | Δ_x | Δ_y |
|-----------|-----------|---------|---------|-------|-------|-----------|-----|-------------|------------|------------|
| 2,33 | 1,94 | 0,5411 | 0,6164 | 2,06 | 2,96 | 4,88 | 369 | 22,40 | 0,11 | 0,11 |

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko‘rsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma’lum $\bar{X}=2,33$; $\bar{Y}=1,94$; $\Delta_x=0,11$; $\Delta_y=0,11$ ga teng.

Bundan sifat ko'rsatkichlari:

$$K_{yc6} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{2,33 - 0,11}{1,94 + 0,11} = \frac{2,22}{2,05} \approx 1,08 > 1;$$

$$K_{o66} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (2,33 - 0,11) - (1,94 - 0,11) = 2,22 - 1,83 = 0,39 > 0;$$

Olingan natijalardan organik kimyo fanini o'qitishda talabalarning o'quv bilish faoliyatini takomillashtirish bo'yicha o'qitish samaradorligini baholash mezonining birdan kattaligi bilan va bilish darajasini baholash mezonining noldan kattaligi orqali ko'rish mumkin. Matematik statistik tahlillardan ma'lumki, tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat guruhidagi o'zlashtirishdan yuqori (13,1% ga) ekan.

Yuqoridagi statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, tadqiqot natijalari bo'yicha o'tkazilgan va dissertatsiyada keltirilgan statistik tahlillar tajriba-sinov ishlari samarador ekanligini va bizning ko'zlagan maqsadimiz tasdiqlanganini ko'rsatadi.

XULOSALAR

“Organik kimyo fanini o'qitishda talabalarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi dissertatsiya bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bugungi ilm-fan va texnologiyalar taraqqiyotida organik kimyoning barcha sohalariga kirib borishi, uzluksiz ta'lim tizimida organik kimyo fanini puxta o'zlashtirish ehtiyojini yuzaga keltirib, bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarining o'quv materiallarini puxta va mustahkam o'zlashtirish imkonini beradigan o'quv bilish faoliyatini rivojlantirishga asos bo'ldi.

2. Tadqiqot jarayonida talabalarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik va psixologik jihatlari hamda talaba shaxsiga individul va tabaqalashgan yondashuv asosida ta'lim olish talablari va imkoniyatlariga asoslangan o'quv dasturlarini va o'qitish metodikasini takomillashtirishga erishildi.

3. Innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida organik kimyo fanini o'qitishda talabalarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarida o'quv-ilmiiy laboratoriyalarni tashkil etish, ularni zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash, virtual laboratoriyalar asosida talabalarning mustaqil o'quv bilish faoliyatini tashkil etishning metodik asoslarini takomillashtirildi.

4. Organik kimyo fanida ushraydigan kimyoviy jarayonlarga oid muammoli vaziyatlarning umumiy tahlili ko'rib, axborot ta'lim resurs ba'zasi shakllantirildi va amaliyotga joriy etildi. Taklif qilingan modellarning talabalar o'zlashtirish metodlari, vosita usullari yoritildi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning, uslub va tizimlari yoritib berildi, afzalliklari hamda ijobiy natijalarga erishish omillari o'rganildi.

5. Organik kimyo fanidan yaratilgan innovatsion texnologiyaga asoslangan “Organik kimyo”, “Kimyo o'qitish metodikasi” nomli axborot ta'lim resursi

talabalarda organik kimyo faniga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalaridan foydalanish yordamida ijodiy tafakkurni o'stirish, ta'lim sifatini rivojlantirishda samaradorlikni ta'minlashga yordamchi vosita sifatida o'z tasdig'ini topdi.

6. Ta'lim jarayonida qulay ta'lim muhitini yaratish, talabalarni o'zini-o'zi o'quv bilish faoliyatiga yo'naltirishi, bunda mustaqil ta'limning ulushini oshirish hisobiga samarali faoliyatga nisbatan qiziqish va ehtiyojni qo'llab-quvvatlash maqsadida hamkorlikda ishlash mexanizmidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etdi.

7. Pedagogik ta'lim rivojlanishining zamonaviy innovatsion yo'nalishlarini ishida xususiy innovatsion nazariyani shaxsiy (xususiy) yo'nalishli ta'lim sohasidagi ishlanmalarni, ta'limni tashkiliy-tuzilmaviy modelini, ta'limni ko'p darajali tizimini rivojlantirishni ajratib ko'rsatish mumkin. Umuman olganda ta'limda individual-ijodiy va jamoaviy-ijodiy faoliyat sohasida bugungi kunga kelib sezilarli tajribalar to'plandi, o'quv pedagogik jarayoni ishtirokshilari o'rtasida subyekt-subyekt munosabatlari rivojlanishida o'zgarishlar sodir bo'layotganini kuzatish mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1) oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarida ko'rsatilgan organik kimyoga doir mavzularni o'qitish uchun berilgan vaqtning cheklanganligini e'tiborga olib, ushbu mavzularni innovatsion yondashuv asosida o'qitish shakllari, metodlari va vositalarini yanada takomillashtirish zarur;

2) oliy ta'lim tizimida o'quv adabiyotlari yaratishda eng yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda, talabalar mustaqil tayyorlanishi, o'quv bilish faoliyatini rivojlantirishda o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishi, ulardagi kreativlikni oshirish kabi omillarni inobatga olish kerak;

3) organik kimyo fanining murakkabligini inobatga olgan holda talabalarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirish uchun ta'limga individuallashtirish va tabaqalashgan yondashuv asosida innovatsion ta'lim texnologiyalarini amaliyotga tadbiiq etish zarur.

4) Organik kimyo fani bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlarida talabalarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan kirish (dastlabki) nazorat, joriy nazorat, oraliq nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish va yakuniy nazoratning metodik ta'minotini takomillashtirish zarur.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
НАУЧНОЙ СТЕПЕНИ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.03/29.10.2021.К/Т.60.05 ПРИ АНДИЖАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЖУРАЕВ АЗИЗ ТУРОБ УГЛИ

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ В ПРЕПОДАВАНИИ КУРСА
ОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ**

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (химия)

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Андижан – 2025

Тема диссертации доктора педагогических наук (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2022.4.PhD/ped4113

Диссертация выполнена в Наманганском государственном университете

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) языках на веб-странице Научного Совета (www.namdu.uz) и на Информационно-Образовательном портале «Ziyounet» (www.Ziyounet.uz).

Научный руководитель: **Болтаева Мухае Лутфуллаевна**
Кандидат педагогических наук, доцент

Официальные оппоненты: **Ибрагимов Алижон Аминович**
доктор химических наук, профессор

Думонов Бахромжон Мухторалиевич
доктор философии (PhD),
по педагогическим наукам, доцент

Ведущая организация: **Национальный педагогический университет Узбекистана**

Диссертацию защитил в Андижанском государственном университете. DSc.03/29.10.2021 K/T.60.05 цифровой научный разовый совет 2025 « 08 » « 25 » В 10⁰⁰ часов. (Адрес: 170100, город Андижан, улица Университетская, дом 129. Тел. (+99877) 223-88-30) факс: (99874) 223-84-33.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного университета (зарегистрирован за № 58 (Адрес: 170100, город Андижан, улица Университетская, дом 129. Тел. (+99877) 223-88-30) факс: (99874) 223-84-33, e-mail: mirjalolmominjonov1@gmail.com)

Автореферат диссертации разослан « 11 » 08 2025 года
(Протокол регистрации № 58 « 11 » 08 2025 года)



Ш.Х. Абдуллоев
Заместитель председателя разового научного совета по присуждению ученых степеней, д.х.н. профессор

М.М. Муминжонов
Учленный секретарь разового научного совета по присуждению ученых степеней, д.х.н. доцент

М.М. Хожиматов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению научных степеней, д.х.н. профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD)).

Актуальность и востребованность темы. В связи с тем, что в мире одной из актуальных проблем является популяризация содержания образования с помощью инновационных технологий в соответствии с глобальным развитием в системе химической науки, техники и естественных наук. В связи с этим, в целях подготовки кадров, соответствующих международным стандартам в высших учебных заведениях развитых стран, важное значение приобретают качественное образование, передовые технологии преподавания фундаментальных химических наук, использование дидактических средств, оснащение учебно-научных лабораторий современным оборудованием, создание и внедрение в практику технологии проведения химических опытов на базе виртуальных лабораторий.

В области химического образования в мире проводится ряд исследований, направленных на создание механизмов обучения, организацию обучения на основе педагогических программных средств и интерактивных методов, совершенствование инновационных методических моделей подготовки будущих учителей к профессиональной деятельности. В этой связи особое внимание уделяется внедрению в образовательный процесс современных педагогических технологий, обновлению содержания образования на основе зарубежного опыта. Поэтому важное значение имеют научные исследования по совершенствованию процесса обучения химии средствами инновационных и информационных технологий, созданию учебного пособия нового поколения на основе современных методов, созданию учебно-методического обеспечения эффективной организации учебно-познавательной деятельности учащихся путем обеспечения интеграции теории и практики.

В республике создаются необходимые условия для совершенствования системы подготовки специалистов с высшим образованием на основе международных стандартов, “достигаются определенные результаты по формированию практических навыков, основанных на индивидуальных образовательных траекториях. О стратегии развития нового Узбекистана на важные задачи по “повышению уровня охвата и качества высшего образования”. Исходя из этих задач, важное научно-практическое значение приобретает формирование образовательных программ в соответствии с интересами студентов и потребностями кадровых заказчиков путем разработки учебных планов, соответствующих современным требованиям, внедрение методик и технологий, направленных на укрепление компетенций в учебном процессе, ориентация учебного процесса на формирование практических навыков и внедрение их в практику.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Законе Республики Узбекистан от 23 сентября 2020 года No ЗРУ-637 "Об образовании," Указах Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года No УП-5847 "Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан

до 2030 года," от 28 января 2022 года No УП-60 "О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы," Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 27 февраля 2020 года No ПП-4623 "О мерах по дальнейшему развитию сферы педагогического образования," от 12 августа 2020 года No ПП-4805 "О мерах по повышению качества непрерывного образования и результативности науки по направлениям химии и биологии," а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики: II. Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном и духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации выполнены в рамках приоритетного направления.

Степень изученности проблемы. Многие ученые работали над применением в образовательном процессе теоретико-методологических основ, методов обучения и современных средств обучения методике преподавания химии.

